

AXBOROT MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIGA BO'LGAN EHTIYOJLARNI  
O'RGANISH MEXANIZMLARI

Xamdamova Nasiba Ablakulovna

Ulmasova Oygul Baxtiyorovna

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi kafedrasi assistentlari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda Axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganish mexanizmlarining o'rni hamda bugungi kunda axborot mahsulotlari va xizmatlarning iqtisodiy mazmun mohiyati. Axborot xizmatlarining zamonaviy sohasi hisoblash texnikasi vositalarini ishlatish bilan bevosita bog'liq iqtisodiy munosabatlar haqida tahliliy ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot, axborot biznes, ilmiy-tadqiqot va loyiha ishlari, axborot texnologiyalari.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль механизмов изучения потребностей информационных продуктов и услуг в Узбекистане и сущность экономического содержания информационных продуктов и услуг сегодня. Приводятся аналитические сведения об экономических отношениях, непосредственно связанных с использованием компьютерных средств в современной сфере информационных услуг.

**Ключевые слова:** информация, информационный бизнес, научно-исследовательская и проектная работа, информационные технологии.

**Abstract:** This article examines the role of mechanisms for studying the needs of information products and services in Uzbekistan and the essence of the economic content of information products and services today. Analytical information is provided on economic relations directly related to the use of computer tools in the modern field of information services.

**Key words:** information, information business, research and design work, information technology.

Axborot xizmatini ko'rsatish va xizmatlarni taqdim etish sohalarida ixtisoslashuv, eng ko'p tarqagan va ishlab chiqarish xarakteridagi, ilmiy-tadqiqot va loyiha ishlariga hamda dasturiy ta' minotni ishlab chiqarish va yuritishga bo'linishi mumkin.

Ishlab chiqarish xizmatlari o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

- ma'lumotlarm qayta ishlash, uzatish va himoya qilishni ta'minlovchi, axborot massivlari va ma'lumotlar bazasini yuritish bos yicha asosiy xizmatlar;
- texnik xizmat ko'rsatishni va hisoblash texnikasi vositalari hamda periferiya qurilmalarini ta'mrlashm ta'mmlovchi yordamchi xizmatlar.

Axborot xizmatlarining zamonaviy sohasi hisoblash texnikasi vositalarini ishlatish bilan bevosita bog'liqdir va foydalanuvchilar infratuzilmasini rivojlantirish

uchun hayotiy zarurdir. Amaliyotda faoliyat natijasining xizmat yoki mahsulot ekanligini aniqlash murakkabdir.


Sanoat tasnifining xalqaro standartiga mos ravishda xizmatlar sohasi quyidagicha bo'linadi: - chakana va ulgurji savdo;

- transport va aloqa;
- moliyaviy, sug'urta va bank xizmatlari;
- boshqa xizmatlar: tibbiy va sug'urta xizmatlari, ta'lif va ilmiy ishlanmalar, dam olish va madaniyat, kommunal xizmatlar.

Axborot bozorida ishlayotgan kompaniyalarning ishlab chiqarish va tijorat faoliyati muvaffaqiyati birinchi navbatda mijozlarning axborot ehtiyojlarini qondirish maqsadida axborot mahsuloti sifatiga qo'yiladigan talablarning yuqori darajasi bilan belgilanadi. Bu esa axborot xizmatlarining sifatini barcha bosqichlarda nazorat qilish orqali ta'minlanadi. Mazkur xizmatlar turining mashhurligi oshmoqda va boshqa xizmatlarning barcha turlarini quyidagi omillar tufayli ortda qoldirmoqda:

- kompyuter tarmoqlarining kommunikatsiya muhitida ishlash uchun yetarli malakaga ega bo'lgan foydalanuvchilarining katta miqdori;
- xizmat ko'rsatishning o'ta tezkorligi;
- o'zaro axborot almashinushi sharoitida kompaniyaning faoliyat yuritish jarayoni samaradorligini ta'minlovchi instrumental vositalarni harid qilish uchun qo'shimcha harajatlardan voz kechish imkoniyati.

Axborotdan foydalanishdan olinishi kutilayotgan daromadni optimallashtirish modeli 1-rasmda taqdim etilgan bo'lib, u kompaniya byudjetini shakllantirishda eng maqbul boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.



**1-расм. Ахборотлардан фойдаланиш натижасида олиниши кутилаётган даромадни оптималлаштириш<sup>1</sup>**

Qayd etish joizki, axborotlarga ega bo'lgan va uni sotayotgan vositachining ajratilishi holisona yuz beradi, bu esa vositachi axborotlarini harid qilish uchun ketadigan harajat bunday axborotlarni mustaqil izlash uchun sarflanadigan mablag'ga nisbatan kamroq ekanligiga ishoradir. Bunda vositachi xizmatlaridan foydalanuvchi iqtisodiy agentlarning salmoqli qismida va bunday xizmatlardan foydalanmayotganlarda vositachiga nisbatan "chayqovchi" va "havo" sotuvchisiga bo'lgani kabi salbiy

munosabat hosil bo'lishi muqarrardir. Bu bizning nazarimizda, ikki asosiy sabablarning ta'siri natijasidir:

1) vositachining xizmatlarini to'layotgan iste'molchi aslida o'zi uchun kerakli axborot uchun xaq to'layotganini anglamaydi;

2) iste'molchilarning boshqa salmoqli qismi garchi axborot uchun xaq to'layotganini anglasa ham, unga bepul yoki kam qimmatli resurs sifatida qaraydi.

Bozor tuzilmalari va insitutlarining rivojlanish jarayonlarida axborotlarning bozor mexanizmlarini muvofiqlashtirish, alohida bozor agentlarining nisbatan samarali ishini ta'minlash, qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarining ishonchlilik mavqeini oshirishdagi rolini anglash anchaga o'smoqda. Natijada bozorning o'ziga xos sohasi – axborot biznesi shakllanmoqda. Ishlab chiqarishning o'ziga xos omili sifatida axborot tayyorlash mazkur biznesning vazifasi hisoblanadi. Brokerlar, dilerlar kabi oddiy vositachilar hamda marketing, auditorlik, axborot-tahliliy markazlar kabi ixtisoslashgan kompaniyalar axborot biznesining subyektlariga aylanishmoqda. So'nggi o'n yil ichida iqtisodiyot fanida axborotlarga nisbatan ishlab chiqarishning yangi omili sifatidagi munosabat shakllandı. Mexnat, sarmoya, yer, tadbirkorlik kabi an'anaviy omillar bilan bir qatorda axborotlar ishlab chiqarish jarayonlarining ajralmas bo'lagiga aylanmoqda. Mazkur voqelikni anglash dastlab axborotlar rolini zamonaviy jamiyatda tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy ishlarda o'z aksini topmoqda.

"Axborot jamiyat" konsepsiyasini ishlab chiqish zamirida axborot jarayonlarining avtomatlashuvi natijasida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va axborot faoliyatining ahamiyatini kuchaytirish orqali vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni tahlil qilish va umumlashtirishga bo'lgan urinishlar yotibdi. O'z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda birinchi o'ringa texnik talablar qo'yiladi. Bunda texnika ijtimoiy o'zgarishlarning hal qiluvchi omili sifatida tan olinadi. Axborotlarning barcha turlari, shu jumladan ilmiy, texnikaviy va asosan iqtisodiy axborotlarga bo'lgan talabining shiddatli o'sishi va differensiatsiyasi, shuningdek ma'lumotlarni taqdim etish mazmuni va shakllariga qo'yilgan talablarning oshishi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bozorining rivoji uchun muhim rag'bat vazifasini o'taydi. Mijozlarda ortib borayotgan axborot ehtiyojlarini qondirish yangi jabha – axborot biznesi sohasi korxonalari oldida turgan dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Ishonchli va dolzarb axborotlarga ega bo'lish uni yig'ish, o'zgartirish va yetkazishning mos usul va vositalarini samarali qo'llay bilish har qanday korxona, tashkilot, muassasalarining tijorat faoliyatini ularning tashkiliy-xuquqiy shaklidan qat'iy nazar samarali tashkil etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi

Ma'lumotlar bazasiga masofadan kirish xizmatlarining asosiy foydalanuvchilari an'anaviy ravishda tashkilotlar hisoblanadi. Biroq so'nggi paytlarda yakka foydalanuvchilar miqdorining sezilarli oshgani qayd etildi. Umuman, tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, professional faoliyatni axborot bilan ta'minlash muammosi dolzarbliji jihatidan yuqorida qayd etilganlarining ichida uchinchi o'rinda turibdi, bundan tashqari mazkur muammo ishlab chiqarish sohasi va kichik korxonalar uchun

ayniqsa dolzarbdir. Mazkur savolga berilgan javoblarning umumiy taqsimoti 1-jadvalda keltirilgan.

### 1-jadval

Komaniyangiz oldida qanday asosiy muammolar mavjud degan savolga komponiyalarning turiga qarab javoblarning taqsimoti.

Axborot resurslari	Korxona turlari bo'yicha taqsimot %				Jami %
	Xususiy tadbirkor	Mikro firmalar	Kichik korxona	Yirik korxona	
<u>Mos malakaga ega kerakli mutaxassislarning yetishmovchiligi</u>	10,0	17,39	4,60	20,63	9,64
<u>Mahsulot o'tkazish muammosi</u>	50,0	43,48	63,22	46,03	56,43
<u>Kreditlashning ortiqcha shartlari</u>	5,0	17,39	4,02	9,52	6,43
<u>Rivojlanish uchun moliyaviy resurslarning yetishmivchiligi</u>	50,0	26,09	36,21	46,03	38,21
<u>Biznes faoliyatining tashqi sharlari o'zgarishi bilan axborotga tezkor kirish imkoniyatining yo'qligi</u>	0,03	4,35	14,94	4,76	10,71

Tadqiqotlarimizning ko'rsatishicha, so'rovda qatnashganlar mahsulot o'tkazish (sotish) va rivojlanish uchun moliyaviy resurslarning yetishmovchiligini kompaniya oldida turgan eng muxim ahamiyatli muammolar sirasiga kiritishgan. Mahsulot o'tkazish muammosi – marketing kommunika-siyalarini tashkil etish, mahsulot sotish jarayonini tashkil etishni ta'min-lovchi zarur axborot resursining yo'qligi bilan bog'liq tranzaksion xaratjatlar muammosi. Sotish muammosi – mazkur jarayonni kadr bilan ta'minlash muammosidir, u mutaxassislarning professional bilimga egaligiga bog'liq. Bizning fikrimizcha, mahsulotni mijozga o'tkazish muammosi ko'p jihatdan axborot yetishmasligi muammosidir. U savdo bo'yicha mutaxassislarning axborotlarga bo'lgan ehtiyojini to'g'ri anglab yetmagani oqibatida kelib chiqadi. Tadqiqotlarni tashkil etishda, biz mutaxassisning professional faoliyati sifati undagi axborot asosining shakllanganlik darajasiga bog'liqlidan kelib chiqdik. Axborot biznesini o'rganish jarayoni bizdan kerakli axborotlarni izlash va olish bilan bog'liq kompaniyaning asosiy muammolarini aniqlashni talab etdi. Tadqiqot jarayonida biz axborot ehtiyojlari asosan anglanmaydigan bo'ladi degan xulosaga keldik. So'rvnomadagi 4-7-savollarga berilgan javoblarning tahlili mazkur farazni tasdiqladi, so'ralganlarning 46,79% kompaniya faoliyatini yo'lga qo'yish uchun aynan qanday axborot kerakligi haqidagi savolga javob berishga qiyngaganligi buning yaqqol dalilidir. Axborotlar narxining yuqoriligi bilan bog'liq muammoni asosan kichik (49,21%) va yirik (47,83%) korxonalarda ishlovchi respondentlar kayd etishdi. Bunga sabab – aynan mazkur korxonalar AMXni tijorat asosida taqdim etuvchi komponiyalarning xizmatlaridan ko'p jihatdan foydalanayotganida bo'lishi mumkin. Qiziq jihat shundaki, aynan mazkur korxonalarda mutaxassislar nisbatan ongli ravishda axborotlarga bo'lgan ehtiyojni sezmoqda. So'rvnomada natijalariga ko'ra, faqat 30%ga yaqin respondentlar – kichik va 21,74% yirik korxonalar rahbar va mutaxas-sislari aynan qanday axborot zarurligi haqidagi savolga tayin javob berish qiyinligini qayd etishdi. Mazkur savolga javoblarning taqsimoti 2-jadvalda ko'rsatilgan.

### 2-jadval

“Zarur axborotlarni izlash va olish jaroyonida komponiya duch keladigan asosiy muammolar” savoliga beriladigan javoblar taqsimoti.

Axborot resurslari	Korxona turlari bo'yicha taqsimot %				Jami %
	Xususiy tadbirdor	Mikro firmalar	Kichik korxona	Yirik korxona	
Qayerdan axborot olishni bilshmaydi	10,92	5,0	7,94	0,0	8,57
Axborotlar narxining yuqoriligi	13,22	25,0	49,21	47,83	24,64
Kerakli axborotni olish mumkin bo'lgan tashkilotlarni yo'qligi	26,44	10,0	12,7	30,43	21,79
Aynan qanday axborot zarurligi haqidagi savolga javob berish qiyin	55,17	60,0	28,57	21,74	46,79
Muammolar ko'rsatilmagan	-	-	-	-	3,93

Axborot xizmatlarini servis faoliyati ob'ekti sifatida ajratish ushbu tasnifni kengaytiradi, ammo shu bilan birga axborot texnologiyalarini "inson-simvol" faoliyat turi sifatida ifodalash mumkin emas, chunki "inson-predmet" munosabatlari (texnologiya komponentlari, jumladan, kompyuterlar va dasturiy mahsulotlar) va "inson-inson" (masalan, o'qitish tizimi, kompyuter o'yinlari va h.k.) munosabatlari aniq ishtirok etmoqda.

Har bir guruhda yuqori malakali xodimlar zarur bo'lgan xizmatlar hamda ommaviy foydalanuvchilarga mo'ljallangan va yuqori malakali mutaxassislarni talab qilmaydigan oddiy xizmatlar mavjud. Bu axborot-kommunikatsion texnologiyalari sohasida xizmatlarning oc ziga xos turlarini ko'rsatuvchi tashkiliy shakllarni tasniflashga bo'lgan yondashuvlardan biridir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alikulov, A. I., & Bakhriev, M. (2023). IMPROVING THE ACCOUNTING OF THE COSTS OF MODERNIZATION AND REPAIR OF KEY EQUIPMENT IN AGROCLUSTERS. International Journal Of Literature And Languages, 3(11), 14-19.
2. Alikulov, A. M., & Toshpulatov, J. (2023). Agroklasterlarda moliyaviy natijalar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari.
3. Alikulov, A. I., & Bakhriev, M. (2023). IMPROVING THE ACCOUNTING OF THE COSTS OF MODERNIZATION AND REPAIR OF KEY EQUIPMENT IN AGROCLUSTERS. International Journal Of Literature And Languages, 3(11), 14-19.
4. Аликулов, А. И. (1993). Совершенствование учета затрат на производство, переработку и исчисление себестоимости продукции хлопка-сырца в хлопковом комплексе (на примере хлопководческих хозяйств и хлопкоочистительных заводов Самаркандской области).
5. Эшмурадов, У. Т. (2022). СОТИШ ЖАРАЁНЛАРИНИГ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИ БЎЙИЧА ТРАНСФОРМАЦИЯСИ МАСАЛАЛАРИ. Архив научных исследований, 2(1).

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME-7 ISSUE-2 (29- February)**

6. Tashmuratovich, E. U. (2023). IMPROVEMENT ACCOUNTING OF PROCESS REALIZATION IN FARM ENTERPRISES. JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE, 6(5), 20-28.
7. Olimjonovna, J. R. D., & Tashmuratovich, E. U. B. (2023). AGROKLASTERLARDA KAPITAL SARFLAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI. MASTERS, 1(1), 112-118.
8. Ixtiyorovich, Q. L. A., Shavkat o'g'li, I. R., & Tashmuratovich, E. U. B. (2023). XARAJATLAR HISOBIDA QO 'LLANILADIGAN ATAMALAR MOHIYATI TAHLILI VA ULARNI TIZIMLASHTIRISH. MASTERS, 1(1), 127-131.
9. Eshmuradov, U. B. (2023). Sotish jarayonlari hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish.
10. Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANOAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany), 712-721.
11. Пардаева, О. М., & Жавманов, Ж. А. (2023). СНИЖЕНИЕ УРОВНЯ БЕЗРАБОТИЦЫ ПУТЕМ ВОВЛЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ НА САМОЗАНЯТОСТЬ. PEDAGOG, 6(4), 568-574.
12. Жавманов, Ж. А., & Уралов, Б. М. (2023). Методология оценки и измерения бедности населения. Pedagog, 6(11), 237-246.
13. Abdusamatovich, J. J. (2023). THE POPULATION WISHES FOR POVERTY REDUCTION AND EMPLOYMENT. JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT, 6(5), 26-38.
14. Жавманов, Ж. А., Хотамов, А. А. У., & Амонов, С. Т. У. (2023). ПЕРСПЕКТИВЫ ИЗВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ОТ БЕДНОСТИ. JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 6(5), 193-203.
15. Жавманов, Ж. А., & Муродкулов, Ж. Х. (2023). ФАКТОРЫ БЕДНОСТИ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. PEDAGOG, 6(11), 247-254.
16. Жавманов, Ж. А. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОПРЕДЕЛЕНИЯ КРИТЕРИЕВ БЕДНОСТИ. JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 6(5), 306-318.
17. Kozimbek G'anijon o'g, M., & Abdusamatovich, J. J. (2023). KAMBAG'ALLIKNI BARTARAF ETISHNING XORIJIY TAJRIBALARI VA UNDAN MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI. JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE, 6(5), 1-11.
18. Erkin o'g, D. S. M., & Abdusamatovich, J. J. (2023). KAMBAG'ALIKNI BARTARAF ETISH BO'YICHA ERISHILGAN NATIJALAR. JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE, 6(5), 12-19.
19. Жавманов, Ж. А., Уралов, Б. М., & Очилова, М. Т. (2024). ФИНАНСОВО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РЕАЛИЗАЦИИ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA İLMİY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(26), 240-250.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME-7 ISSUE-2 (29- February)**

---

20. Makhmudovich, U. B., Abdusamatovich, J. J., Tashtemirovna, O. M., & Ugli, F. U. K. (2024). TAXATION OF INDIVIDUAL ENTREPRENEURS AS A FORM OF STATE REGULATION OF SELF-EMPLOYMENT. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(26), 232-239.
21. Abdusamatovich, J. J., Maxmudovich, U. B., Tashtemirovna, O. M., & O'g'li, F. U. X. (2024). O 'ZBEKISTONDA INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL TENDENSIYALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(26), 222-231.
22. Жавманов, Ж. А., Уралов, Б. М., Очилова, М. Т., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). НАЛОГООБЛОЖЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ КАК ФОРМА ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ САМОЗАНЯТОСТИ. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 369-378.
23. Очилова, М. Т., Уралов, Б. М., Жавманов, Ж. А., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). РАЗРАБОТКА МОДЕЛИ РАЗМЕЩЕНИЯ И СПЕЦИАЛИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКЕ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 379-386.
24. Уралов, Б. М., Очилова, М. Т., Жавманов, Ж. А., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 387-395.
25. Ilyos, A., & Uralov, B. Investment Strategy as a Factor of Innovation in Uzbekistan. JournalNX, 453-456.
26. Uralov, B., & Ishturdiyev, H. (2023). O 'zbekistonda hududlar kesimida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati.
27. Maxmudovich, U. B., Baxtiyorovich, B. M. Z., & Ikrom o'g'li, A. H. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI. JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT, 7(1), 52-62.
28. Иштурдиев, Х. А. (2023). Совершенствование учета финансовых результатов в агрокластере. Научный Фокус, 1(7), 700-708.
29. Murodovich, G. R., & Hassan, I. (2023). IMPROVEMENT OF ACCOUNTING AND AUDIT OF FINANCIAL RESULTS IN BUSINESS ENTITIES. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1586-1592.
30. Uralov, B., & Ishturdiyev, H. (2023). O 'zbekistonda hududlar kesimida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati.
31. Yuldashev, S., & Ishturdiyev, H. (2023). Qishloq xo 'jalik korxonalarida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini takomillashtirish masalalari.
32. Гайбуллаев, Р. М., & Иштурдиев, Х. (2023). ХЎЖАЛИК ЮРИТИШ СУБЪЕКТЛАРИДА МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАР ҲИСОБИ ВА АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. World of Science, 6(4), 345-351.
33. Абдигаппарович, И. Ҳ., & Юлдашев, Ш. Ҳ. (2024). ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕТА ЗАТРАТ И СТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ НА

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH  
VOLUME-7 ISSUE-2 (29- February)**

СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ. SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 361-368.

34. Narziyeva, G., & Raximova, U. (2023). Superior directions, modern trends and prospects for the development of the financial market.

35. Olim, M., & Baxtiyorovna, U. O. (2023). KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJY DAVLATLAR TAJRIBASI. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 758-766.

36. Olim, M., & Bakhtiyorovna, U. A. (2023). THE IMPORTANCE OF SMALL INDUSTRY ZONES IN THE DEVELOPMENT OF REGIONS. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 218-224.